

## TASHQI SAVDO AYLANMASI


*(2019 yil yanvar-dekabr\*)*

2019 yil yanvar-dekabr oyida, viloyatda tashqi savdo aylanmasi 509071,1 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 151,4 % ni tashkil etdi.


Shu jumladan, eksport hajmi 120332,4 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 157,9 % ni tashkil qildi. Import hajmi 388738,7 ming AQSh dollarini tashkil etib, o'sish sur'ati 149,5 % ni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosini minus 268406,3 ming AQSh dollarini tashkil qildi.

### Viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSh dollari)




## Viloyatning tashqi savdo aylanmasi Eksport va import (ming AQSh dollari)



Tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning tashqi savdo salohiyati oshib bormoqda.

Viloyatimizning tashqi savdo aylanmasi 2019 yil yanvar-dekabr oylarida 509071,1 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport aylanmasi 120332,4 ming AQSH dollar, import aylanmasi 388738,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.


## Tashqi savdo aylanmasi tarkibi (MDH va boshqa xorijiy davlatlar hajmi va ulushi, ming AQSH dollarida)



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 % ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatdagi tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,7 % ga oshdi.

## Eksport va import tarkibi (MDH va boshqa xorijiy davlatlar ulushi, foizda)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda MDH davlatlarining eksportdagi ulushi 59,8 % ni, importdagi ulushi 15,2 % ni tashkil qildi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz eksportidagi ulushi 40,2 % ni, importdagi ulushi 84,8 % ni tashkil qildi.


## Eksport va import tarkibi

(MDH va boshqa xorijiy davlatlar bo'yicha hajmi, ming AQSH dollarda)

### Eksport




### Import



2019 yil yanvar-dekabr oylarida eksportda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47,6 % ga, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 76,1 % ga oshdi.

Importda MDH davlatlari hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,0 % ni tashkil etdi, boshqa xorijiy davlatlar hajmi 178,0 % ga oshdi.


## MDH davlatlariga eksportning tarkibi (foizda)



Viloyatimizdan 2019 yil yanvar-dekabr oylarida eng ko'p eksport hajmi MDH davlatlaridan Rossiya federatsiyasiga (29869,2 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam miqdordagi eksport hajmi Moldova Respublikasiga (15,5 ming AQSH dollar) amalga oshirilgan.


## MDH davlatlaridan importi tarkibi (foizda)



Viloyatimizga 2019 yil yanvar-dekabr oylarida MDH davlatlari tarkibidan eng yuqori import hajmi Rossiya federatsiyasidan (33352,1 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Qirg'iziston Respublikasidan (233,3 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

## Eksportda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)




Viloyatimizdan 2019 yil yanvar-dekabr oylarida eng ko'p eksport hajmi boshqa xorijiy davlatlardan Turkiya Respublikasiga (26251,2 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam eksport hajmi Slavakiya Respublikasiga (0,3 ming AQSH dollari) to'g'ri kelmoqda.




## Importda boshqa xorijiy davlatlarning ulushi (foizda)



Viloyatimizga 2019 yil yanvar-dekabr oylarida eng ko'p import hajmi boshqa xorijiy davlatlar tarkibidan Xitoy Xalq Respublikasidan (130662,9 ming AQSH dollari) amalga oshirilgan.

Shuningdek, eng kam import hajmi Ruminya Respublikasidan (0,2 ming AQSH dollari) amalga oshirilganligini ko'rish mumkin.

## Tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollarda)




2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda eng ko'p tashqi savdo aylanmasiga ega hudud Jizzax shahri (174436,5 ming AQSH dollari) hisoblanadi va bu hududda tashqi savdo hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 27,0 % ga oshdi.

Shuningdek, eng kam tashqi savdo aylanmasiga ega bo'lgan hudud Yangiobod tumani (5539,7 ming AQSH dollari) hisoblanadi.


## Eksport

(ming AQSH dollarida)



## Import


(ming AQSH dollarida)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat jami eksport hajmida eng kam ulush Mirzacho'l tumaniga (807,7 ming AQSH dollari) to'g'ri keladi, lekin ushbu tuman bo'yicha eksport hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,4 martaga ko'paygan.


Viloyatda jami import hajmida eng kam ulush Yangiobod tumaniga (3406,2 ming AQSH dollari) to'g'ri keladi.

## Eksport qiluvchi korxonalar soni (Birlikda)



2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha eksport qiluvchi korxonalar soni birgina Mirzacho'l tumanida kamayganligini, qolgan barcha hududlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich ortganligini ko'rish mumkin.

## Import qiluvchi korxonalar soni ( birlikda )



2019 yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha import qiluvchi korxonalar soni deyarli barcha hududlarda o'tgan yilning shu davriga nisbatan ortganligini kuzatish mumkin.



## **JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi viloyatimiz maxsulotlarini tashqi bozorlarda mustahkam o`rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi boshlig'i  
Murodulla Ibragimov**

***tel: + 99871 230-83-45***